

TURLI SOHADAGI FANLARNI O'QITISHDA SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOYILLARI

M. Irisbayeva¹, B. Irisbayeva²

Annotatsiya:

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab oshib bormoqda, bu nafaqat ta'lim sohasida balki butun kasb egalari uchun zaruriyatga aylanmoqda. Xorijiy tillarni o'rganishda yoki ularni o'qitishda interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, pedagogik texnologiyalardan ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida foydalanilmoqda. Ta'lim tizimida, bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishning eng samarali usuli bu, pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishdir.

Kalit so'zlar: bilim, malaka, ko'nikma, ta'lim, innovatsion, texnologiya, o'qitish, axborot va raqamli texnologiyalari, xorijiy til.

doi: <https://doi.org/10.2024/7v5v6697>

Respublikamizda amal qilinayotgan me'yoriy hujjatlarda e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etishni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishning yuqori pog'onasiga ko'tarishda xalqimiz oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi mamlakatimizning jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egallashida muhim ahamiyatga ega.

Bu ulkan vazifalarning bajarilishida mamlakatimiz rivojlanishining poydevori bo'lgan yosh avlodga har tomonlama chuqur va puxta bilim berish natijasida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida, Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan bugungi kunda til bilish ta'lim tizimida muhim talablardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ko'pgina sohalarini qamrab oluvchi sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. O'quvchining shaxsiyati ta'lim jarayonida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifasi - ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali pedagogik mahoratni oshirishdir.

Pedagogik texnologiya deganda o'qituvchi va o'quvchining tartiblangan harakatlari va o'zaro munosabatlari tushuniladi, buning natijasida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan va o'quvchi tomonidan ongli ravishda qabul qilingan pedagogik maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi.

¹ *Irisbayeva Manzura Nurmamatovna, PhD, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Samarqand filiali o'qituvchisi*

² *Irisbayeva Bakhora Nurmamatovna, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Samarqand filiali qoshidagi akademik litsey ingliz tili o'qituvchisi*

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlar uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida samarali o'qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. O'zbekistonda innovatsion yutuqlar uchun barcha darajalarda sifatli ta'lim tizimi bo'lishi kerak. O'qitish va o'rganish tizimini kengaytirish va yangi o'qitish usullaridan foydalanish nuqtai nazaridan yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning past darajasi hali ham mavjud. "Xorijiy tillarni o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, xorijiy tilni amaliy o'rganishga o'rgatishdir". O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi tilni amaliy o'rganish uchun sharoit yaratish, har bir o'quvchining o'z faoliyatini, ijodkorligini namoyon etishiga imkon beradigan bunday ta'lim usullarini tanlashdir. O'qituvchining ma'suliyati xorijiy tillarni o'qitish jarayonida o'quvchining bilim faoliyatini faollashtirishdir. O'quvchilarga xorij tillarni o'qitishda qu'yidagi metod va usullarni taqdim qilish mumkin:

- Hamkorlikda o'qitish;
- loyiha usullari;
- yangi axborot texnologiyalari;

- Internet-resurslardan foydalanish, masofaviy o'qitish kabi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar shaxsga yo'naltirilgan, differentsiatsiyalashgan ta'lim yondashuvini amalga oshirishga va ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy tamoyillari shulardan iborat bo'ladi.

O'quvchilar guruhlarini shakllantiriladi, shu bilan birga, har bir guruhda kuchli, o'rta va zaif o'quvchilar bo'lishi kerak. Guruhga bitta vazifa beriladi, ammo u bajarilganda guruh a'zolari o'rtasida ro'llar taqsimlanadi. Bir o'quvchining emas, balki butun guruh ishi baholanadi, ya'ni butun guruh uchun bitta ball beriladi. O'qituvchi topshiriqni bajarish uchun hisobot beradigan guruhdan o'quvchini tanlaydi. Agar zaif o'quvchi guruhning birgalikdagi ish natijalari haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lsa, boshqa guruhlarining savollariga javob berishi mumkin bo'lsa, demak, maqsadga erishish va guruh vazifani bajarishi kerak, chunki har qanday topshiriqning maqsadi uning rasmiy bajarilishi (to'g'ri/noto'g'ri qaror) emas, balki har bir guruh o'quvchisi tomonidan materialni o'zlashtirishdir. "Hamkorlik texnologiyasidan foydalangan holda grammatik vazifalarni, uy vazifasini tekshirish, o'qish matni ustida ishlashni, loyiha bo'yicha birgalikdagi ishlarni, imlo ko'nikmalarini ishlab chiqishni, so'z birikmalarida ishlashni amalga oshirishiriladi". Katta matnni o'qish va tarjima qilish, unga berilgan savollarga javob berish, kerakli ma'lumotlarni qidirish, ba'zan o'quvchilar uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Barcha o'quvchilarni bu ishda ishtirok etish qoniqtirmasligi mumkin. Hamkorlik texnologiyasi ushbu muammolarni hal qilishda yordam beradi. O'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirish muammosi juda muhimdir. Hamkorlikda ishlash, bilim faoliyati uchun, muloqot qilish uchun ajoyib rag'bat beradi, chunki bu holda har doim do'stlaringizning yordamiga tayanisiz. Ushbu texnologiyaning asosiy prinsipi: biz o'zimiz uchun mas'uliyatni o'z zimmamizga olamiz. Har bir inson nafaqat o'z muvaffaqiyati uchun, balki uning jamoa a'zolarining muvaffaqiyati uchun ham mas'uldir.

Yana bir zamonaviy usullardan biri loyiha metodi hisoblanadi. Loyiha metodi shaxsga yo'naltirilgan ta'limni ta'minlaydigan texnologiyalardan biri-ijodiy qobiliyatlarni, kognitiv faollikni va mustaqillikni rivojlantirish uchun taklif qilinadigan shaxsga yo'naltirilgan. "Loyiha metodi o'quvchilarning muloqot qobiliyatlari, muloqot madaniyati, fikrlarni qisqacha va osonlik bilan bayon etish qobiliyati, aloqa bo'yicha hamkorlarning fikrlari bilan bo'lishish, turli manbalardan ma'lumotlar olish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash qobiliyatini shakllantiradi. Ishning loyiha shakli o'quvchilarga o'zlari to'plagan bilimlarni mavzu bo'yicha qo'llash

imkonini beradigan eng dolzarb texnologiyalardan biridir". O'quvchilar o'z tafakkurlarini va til bilish chegaralarini kengaytirib boradilar. Ular adabiyotlar, lug'atlar va kompyuterlar bilan ishlaydi. Loyiha ustida ishlash ijodiy jarayondir. O'quvchi mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida muammoni hal qilish bilan shug'ullanadi, bu nafaqat tilni bilishni emas, balki katta hajmdagi bilimlarni, ijodiy, kommunikativ va intellektual ko'nikmalarga ega bo'lishni ham talab qiladi. Loyihalar ustida ishlash tasavvur, ijodiy fikrlash, mustaqillik va boshqa shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi. Ya'ngi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish nafaqat yangi texnik vositalar, balki ta'limning yangi shakllari va usullari, ta'lim jarayoniga yangi yondashuv xam tushuniladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning asosiy xususiyatlari-ta'limni farqlash va individuallashtirish, shuningdek, o'quvchilarning kognitiv ijodiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlarini nazarda tutadi. Ingliz tilini o'rganishda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bizga ish shakllarini diversifikatsiya qilish va darsni qiziqarli olib borish imkonini beradigan metodik vositalar va texnikani tanlashga yordam beradi.

AKTdan foydalanishda quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi: ta'lim jarayonining doirasi kengayadi, uning amaliy yo'nalishini qo'llab-quvvatlaydi, talabalarning o'qitishdagi motivatsiyasini oshiradi, shaxsni muvaffaqiyatlarga erishish uchun sharoit yaratadi, fanga bog'liqlikni rivojlantiradi va kuchaytiradi, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning mustaqilligini rivojlantiradi mavzu bo'yicha bilim sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Mirziyoyev Sh. M. *Prezident: Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt soati keldi. // Milliy tiklanish-Milliy yuksalish sari "Yangi O'zbekiston", 2021 yil 6 may*
- [2]. Абасов, З. А. *Ученик как субъект педагогической технологии / З. А. Абасов // Школьные технологии. - 2001. - № 2. - с. 39-44.*
- [3]. Аллаярова, С. Н. (2019). *Педагогик технологиялар ва актларни куллаш олий таълим сифатини ошириш омили сифатида. Журнал Социальных Исследований, (6).*
- [4]. Ашурова Д.У. *Преподавание лингвистических дисциплин в языковом вузе. Сборник научных трудов по материалам Четвертой Международной научно-практической конференции (г. Воронеж, 19-20 февраля 2019 г.)*
- [5]. Волков, Ю. *Традиционные и новые технологии обучения: "принцип дополнительности" / Ю. Волков // Высшее образование в России. - 2003. с.35-43.*
- [6]. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001*
- [7]. Отабоева, М. Р. *Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — с. 36-37.*
- [8]. Нугай, Л. С. *Использование современных педагогических технологий как одно из условий повышения качества образовательного процесса на уроках иностранного языка. Актуальные вопросы современной педагогики : материалы III Междунар. науч. конф. (г.Уфа, март 2013 г.) — Т. 0. — Уфа : 2013. — С. 138141.*
- [9]. Nurjahon N. *Epitetning badiiy matnda faollashuv o'rne // Prospects of development of science and education. - 2023. - Т. 1. - №. 12. - С. 7-9.*